



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2024-YIL YANVAR-FEVRAL OYLARI**

# Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2024-yilning yanvar-fevral oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami **731,5** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **109,2 %** ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 30,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 95,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,6 % punktga kamayib, 4,2 % ni tashkil etdi.

# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2024-yil yanvar-fevral oylarida

## qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m



*Ma'lumot uchun:*

Respublika boyicha eng yuqori qurilish hajmini kórsatgan Nukus shahri 215,5 mlrd. so‘m, o’sish sur’ati 107,6 %, To’rtko'l tumani 98,9 mlrd. so‘m, o’sish sur’ati 123,3 %, Beruniy tumani 48,6 mlrd. so‘m, o’sish sur’ati 104,9 %, Ellikqal'a tumani 52,2 mlrd. so‘m, o’sish sur’ati 113,3 % ni tashkil etdi.


## Qurilish ishlari

### 2024-yil yanvar-fevral oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>731,5</b>	<b>30,7</b>	<b>523,0</b>	<b>177,8</b>
<b>Nukus sh. tumanlar:</b>	<b>215,5</b>	<b>5,3</b>	<b>191,3</b>	<b>18,9</b>
<b>Amudaryo</b>	<b>39,7</b>	<b>1,8</b>	<b>24,9</b>	<b>13,0</b>
<b>Beruniy</b>	<b>48,6</b>	<b>-</b>	<b>25,1</b>	<b>23,5</b>
<b>Bo'zotov</b>	<b>13,1</b>	<b>-</b>	<b>8,9</b>	<b>4,2</b>
<b>Qorao'zak</b>	<b>16,2</b>	<b>0,8</b>	<b>11,0</b>	<b>4,4</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>10,7</b>	<b>2,2</b>	<b>4,9</b>	<b>3,6</b>
<b>Qo'ng'irot</b>	<b>34,9</b>	<b>7,5</b>	<b>21,8</b>	<b>5,6</b>
<b>Qonliko'l</b>	<b>12,9</b>	<b>0,4</b>	<b>7,0</b>	<b>5,5</b>
<b>Mo'ynoq</b>	<b>42,5</b>	<b>0,3</b>	<b>38,3</b>	<b>3,9</b>
<b>Nukus</b>	<b>40,4</b>	<b>0,3</b>	<b>28,3</b>	<b>11,8</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>26,0</b>	<b>-</b>	<b>20,5</b>	<b>5,5</b>
<b>Taxtako'pir</b>	<b>16,5</b>	<b>0,3</b>	<b>12,2</b>	<b>4,0</b>
<b>To'rtko'l</b>	<b>98,9</b>	<b>6,1</b>	<b>69,0</b>	<b>23,8</b>
<b>Xo'jayli</b>	<b>28,7</b>	<b>-</b>	<b>19,0</b>	<b>9,7</b>
<b>Chimboy</b>	<b>26,9</b>	<b>0,4</b>	<b>9,4</b>	<b>17,1</b>
<b>Shumanay</b>	<b>7,8</b>	<b>0,6</b>	<b>2,1</b>	<b>5,1</b>
<b>Ellikqal'a</b>	<b>52,2</b>	<b>4,7</b>	<b>29,3</b>	<b>18,2</b>

2024-yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 30,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 95,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,6 % punktga kamayip, 4,2 % ni tashkil etdi.

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



*Maʼlumot uchun:* Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Qoʼngʼirot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 21,6 % i yoki 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 85,9 %), Kegeyli tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 20,5 % i yoki 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 740,0 %) va Ellikqalʼa (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 8,9 % i yoki 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 630,3 %) tumaniga toʼgʼri keldi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,5 % i to‘g‘ri kelib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 0,6 % punktga ko‘paygan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 110,3 % ni tashkil etgan holda 523,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



71,5

2024-yil  
yanvar-fevral

70,9


2023-yil  
yanvar-fevral



**Ma'lumot uchun:** Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (191,3 mlrd. so‘m yoki umumiylajiga nisbatan ulushi 88,8 %), To‘rtko‘l tumani (69,0 mlrd. so‘m yoki 69,7 %) Beruniy tumani (25,1 mlrd. so‘m yoki umumiylajiga nisbatan ulushi 51,6 %), ga to‘g‘ri keldi.

## Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 24,3 % ni tashkil etdi yoki 177,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 108,8 % ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **110,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **720,4** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **1,5 %** va **98,5 %** ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2024-yil yanvar-fevral oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **71,6 %** i yoki **523,6** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 11,5 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.

2,2 %

11,5  
mlrd. so‘m

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 336,1 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi 64,2 % ni tashkil etdi.

64,2 %

336,1  
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 176,0 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 33,6 % ni tashkil etdi.

33,6 %


176,0  
mlrd. so‘m

## Yillar bo‘yicha yangi qurilish hajmi va ulushi



## Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi bino va inshootlarni qurishga 515,6 mlrd. so'm, ulushi 70,5 % ni, fuqarolik obyektlarini qurishga 181,3 mlrd. so'm, ulushi 24,8 % ni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga 34,6 mlrd. so'm va ulushi ulushi 4,7 %ni tashkil etdi



*Ma'lumot uchun:* Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

# Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 0,3 % ni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 4,5 % punktga kamaygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 10,6 % punktga ko'payib, 65,2% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 6,1 % punktga kamaydi va 34,5 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 14,7 % ni tashkil etdi va 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 10,9 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 85,3 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



3,8



96,2

Yirik qurilish  
tashkilotlari

2023-yil  
yanvar-fevral



14,7



85,3

Kichik korxona  
va mikrofirmalar

2024-yil  
yanvar-fevral

# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 0,5 % punktga ko'paydi va 7,4 % ni tashkil etdi. Qolgan, 92,6 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023-yilning yanvar-fevral oyilarga nisbatan 0,5 % punktga kamaydi.

